

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISI NUTQINING TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Najiyeva Sojida Nasirdinovna
SamDChTI Pedagogika, psixologiya
va jismoniy madaniyat kafedrasida
katta o'qituvchisi
Чуйский Университет имени
Султана Мамбеткалиева:
Ст. преп. Батырбекова
Раимохан Сагынбаевна

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchining nutqi his – tuyg'uga to'la, so'zlashuv ohangi aniq, ravshan, dona – dona, o'rtamiyona tovushda bo'lishi kerak. Qo'pol iboralar, begona tovushlarga yo'l qo'yilmaydi. O'qituvchi gapirayotgan bolaga sabr – toqat bilan munosabatda bo'lishi, nazokat me'yoriga rioya qilishi, uning gapini bo'lmasligi, fikr mulohazalariga tanbeh bermasligi haqida gap boradi.

Аннотация: В этой статье речь педагога должна быть насыщена эмоциями, тон речи должен быть ясным, ясным, лаконичным, в умеренном тоне не допускаются грубые выражения и посторонние звуки. Сказано, что педагог должен терпеливо относиться к говорящему ребенку, соблюдать нормы вежливости, не перебивать его, не отчитывать за высказывания.

Annotation: This article discusses the teacher's speech, which should be full of emotion, the tone of speech should be clear, clear, concise, and moderate in volume. Rude expressions and extraneous sounds are not allowed. The teacher should be patient with the child who is speaking, observe the norms of politeness, not interrupt him, and not reprimand him for his opinions.

Kalit so'z: O'qituvchi, bola, nutq, ta'lim, sinf, faoliyat, ma'suliyat, til, muomala, odob.

Ключевые слова: Учитель, ребенок, речь, воспитание, класс, деятельность, ответственность, язык, поведение, манеры.

Keywords: Teacher, child, speech, education, class, activity, responsibility, language, behavior, etiquette.

O'qituvchining nutq madaniyati kommunikativ faoliyatining asosi hisoblanadi. Tilning nazariy masalalari qanchalik ishlangan me'yoriy jixatdan belgilangan bo'lmasin, ularni o'rganishda, ulardan foydalanish va ko'nikmalar hosil qilishda loqaydlik, beparvolik, hatto ma'suliyatizlikka yo'l qo'yish, bugungi kun o'qituvchisiga xos bo'lmagan fazilatdir.

Shunday ekan, ona tilimizga nutqimiz madaniyatiga yuksak talablar bilan yondashishimiz, so'zlashish va yozish jarayonida uning barcha me'yoriy talablariga qat'iy rioya qilishimiz, go'zal muomala odobini yo'lga qo'yishimiz va shu orqaligina o'zimiz tarbiyalayotgan yoshlarga namuna bo'lishimiz va ta'sir o'tkazishimiz bugungi kunimizning asl talabidir.

Dehqon niholini parvarish qiladi, ulg'aytiradi, o'stiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi esa murg'ak bolani o'qishga, yozishga o'rgatadi, ta'lim- tarbiya beradi. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, tarbiyachi, o'quvchilarni parvarish qilishi, ulardagi yaxshi fazilatlarni tarkib toptirishi, yomon fazilatlarni bartaraf qila olishi kerak.

O'quv – tarbiya faoliyatini mohirlik bilan uddalashi uchun o'qituvchi bir qator – pedagogik fazilatlarni o'zida shakllantirishi lozim.

O'qituvchining - pedagogik fazilatlari umuminsoniy va milliy axloq odobning qonuniyatlari, tushunchalari, mezonlaridan tashkil topadi. O'qituvchi faoliyatining samaradorligi ham xuddi shunday fazilatlar bilan belgilanadi.

Maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchilari quydagi fazilatlarga ega bo'lishi lozim

1. Pedagogik mahorat fazilatlari.
2. Axloqiy fazilatlari.
3. O'zini – o'zi tarbiyalash fazilatlari.

Yuqoridagi fazilatlarni o'zida mujassam yetgan o'qituvchigina bugungi kun talabiga mos ravishda ish yuritadigan mohir pedagog bo'la oladi. Lekin bugungi kunda hamma pedagoglar talab darajasiga javob bera olmayotganliklari achinarli hol.

Biz yuqorida ko'rib o'tganimizdek, muomala o'qituvchi faoliyatida eng muhim ahamiyatga ega hozirgi kun o'qituvchilarida esa muomala odobi, nutq madaniyati yaxshi rivojlantirishi lozim.

Pedagogik muomala pedagogik ta'sirning eng muhim vositasi hisoblanadi va u ijodiy jarayonda sodir bo'ladi hamda takomillashib boradi. Kuzatishlar shundan dalolat berdiki, eng avvalo, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik nochorliklarining aksariyat qismi ularning metodik tayyorgarligidagi kamchiliklar bilan bog'lanmasdan balki pedagogik muloqotning shakllanmaganligi bilan bog'liqdir. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida ko'proq ishlashi, izlanishi, yangi usullari, texnologiyalarini tadbiiq qilishi kerak.

O'qituvchi o'zining ichki imkoniyatlarini diqqat bilan o'rganishi ifodali nazar solishdan foydalanaolishi, ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

Uning nazari o'quvchilarga qaratilganda vizual muloqat hosil bo'ladi. Vizual muloqat texnikaviy xarakterga ega bo'lib uni ongli ravishda rivojlantirishga yerishish zarurdir. O'qituvchi sinfda hech qachon o'zining qad – qomatini qanday tutishini, qanday harakatlanishini yoddan chiqarmasligi kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z xulq – atvorini shakllantirishi lozim. Uning barcha harakatlari va gavdasi biror holatda turishi, bejirimligi va oddiyligi bilan o'quvchilarni o'ziga jalb qila olishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z o'qituvchisiga taqlid qiladi, unga o'xshashga harakat qiladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan muomala qilganda, amalga oshiriladigan muloqotni faollashtirish uchun gavdasini to'g'ri tutishi, bolalar bilan yuzma – yuz bo'lishi, mutanosib masofaga rioya qilmog'i lozim.

Imo – ishoralar yordamida amalga oshiriladigan verbal muloqot jiddiy emotsional quvvatga ega. O'qituvchining nutqi his – tuyg'uga to'la, so'zlashuv ohangi aniq, ravshan, dona – dona, o'rtamiyona tovushda bo'lishi kerak. Qo'pol iboralar, begona tovushlarga yo'l qo'yilmaydi. O'qituvchi gapirayotgan bolaga sabr – toqat bilan munosabatda bo'lishi, nazokat me'yoriga rioya qilishi, uning gapini bo'lmasligi, fikr mulohazalariga tanbeh bermasligi kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchisi bilan muloqat qilish quydagi shakl va usullarni o'z ichiga oladi.

- Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va yechish.

- Pedagogik o'yinlar.

- uy topshiriqlari

- imo – ishora mimikasi, talaffuz texnikasini rivojlantirishga mo'ljallangan qisqa muddatli muloqat mashqlari va hokozo.

Pedagogik o'yinlarni tayyorlash va o'tkazish jarayonida pedagogik muloqat uchun zarur bo'lgan ijodiylik elementlarining bo'lishiga alohida e'tibor berish lozim.

Hozirgi o'quv yurtlarida tahsil olayotgan bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining soni emas, balki, sifatini yaxshilash kerak. Ular ijodiy muloqot, muomala madaniyatini, o'quvchilar dunyoqarashini anglay olish, ularni tushuna bilish kabi fazilatlarni, shakllantirish kerak. Ijodiy muloqot orqaligina, maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiyani tashkil etish mumkin. Ijodiy muloqat orqali shaxning bilish faolligi oshadi, shakllanadi, ruhiy to'siq olib tashlanadi, yaxshi natijalarga erishiladi.

Hozirgi texnika informatsiyasi kuchaygan davrda o'qituvchining ongini har tomonlama rivojlantirish uchun quydagi masalalarga e'tibor berish lozim;

- a) o'qitishni hayot bilan mustahkam bog'lab borish;

- b) o'quvchilarning darsda va darsdan so'ng olgan bilimlari asosida mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirib borish ;

- v) dars jarayonida hozirgi zamon texnika vositalaridan ko'rgazmali kurol sifatida foydalanib ish ko'rish;

- g) o'qituvchining eng samarali uslublaridan foydalanish, tajriba almashtirish;

d) o'quvchi ongining har tomonlama rivojlanishi uchun xizmat qiladigan uquv uslubiy metodlaridan keng foydalanish.

O'qituvchi muaffaqiyatli ish olib borishida uning shirin so'zligi, har bir o'quvchiga e'tiborli bo'lishi va bolaning ichki dunyosiga kiraolishi katta ahamiyatga ega. Lekin hozirgi o'qituvchilarda shunga o'xshash ko'pgina munosabatlar shakllanmaganligi tufayli eng yaxshi pedagogik usul, metodika muaffaqiyatsizliklarga uchrashi kuzatilmoqda, zamonaviy texnika vositalari ko'zda tutilgan natija bermasligi mumkin. Negaki shaxsning shaxs "ichki dunyosiga" kira olish olmasligi muaffaqiyat yoki muaffaqiyatga erishishning asosiy sababi bo'lib hisoblanadi.

Taniqli psixolog olim A. A. Leontiev maktablarda hali ham uchraydigan o'qituvchining "yomon o'zlashtiruvchi" o'quvchiga bo'lgan munosabatini shunday tasvirlaydi.

1. Uqituvchi "yaxshi" o'qiydigan o'quvchiga nisbatan "yomon" o'qiydigan o'quvchiga javob berishi uchun oz vaqt beradi, ya'ni uning o'ylashiga vaqt qoldirmaydi.

2. Agar javob noto'g'ri bo'lsa savolni qaytarmaydi, yordamchi savol bermaydi, darhol boshqa o'quvchidan so'raydi yoki o'zi to'g'ri javobni aytib qo'yadi.

3. Ba'zan esa liberallik qiladi – noto'g'ri javobni ijobiy baholaydi.

4. "Yomon" o'quvchiga noto'g'ri javob berganida tez – tez tanbeh beradi.

5. Xuddi shuningdek to'g'ri javob bersa kamdan- kam maqtaydi.

6. "Yomon" o'quvchi qo'l ko'tarsa ko'pincha payqamay qoladi, boshqa o'quvchini javob berishga chaqiradi.

7. Kamdan – kam kulimsiraydi, "yomon" o'quvchiga qaramaydi.

8. Undan juda siyrak suraydi, ba'zan darsda u bilan umuman ish olib bormaydi.

Shunisi ajablanarliki, o'qituvchi o'zining bunday fe'lini ko'pincha anglab yetmaydi, tan olmaydi. Shuning uchun ham ko'pgina munosabatlar shakllanmagani sababli ijobiy natijalarga yerishish qiyin.

Shu sababli o'qitishning sifati va samaradorligini oshirishda o'qituvchining kommunikativ faoliyati juda muhim rol o'ynaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimida raxbarlik qilayotgan xodimlarning muomala madaniyati, kommunikativ faoliyatini zamon talablariga mos ravishda shakllantirish hayot ehtiyojidir.

Bo'lajak mutaxassislarining kommunikativ faoliyatini shakllantirishda ta'lim jarayonida informatsion texnologiyadan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Bu muommoni hal qilish uchun informatsion texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq qiladigan va o'qitishning zamonaviy usullariga mo'ljallangan innovatsion tizimlarini yaratish kerak. Kompyuter tizimining asosini turli o'quv dasturlari ya'ni namoyish qilish, trenajyorlar, imitatsion modellashtiruvchi dasturlar tashkil yetadi. O'qituvchilarning kommunikativ faoliyatini shakllantirishda buyuk allomalarning hayoti, ijodi va ular qoldirgan bebaho meros, ibrat va namunadir. Ularning ta'lim - tarbiyaga oid ma'rifiy ta'limotlari Ona - Vatanga, millatga sadoqat va hurmat ruhida tarbiyalashda, ularni iymon etiqodli, insof va diyonatli, odob axloqli, oqil va odil inson qilib tarbiyalashda o'zligini anglatishda benazir qadriyatlidir.

Mustaqillik tufayli mamlakatimizda ochilgan tubdan yangi bilim berish va yangi komil shaxsni tarbiyalash maskanlari - litsey, kollej va maktab o'qituvchilarining butun faoliyati kommunikatsiya, muloqot bilan bog'liqdir.

Bu xodimlar ishining samaradorligi nafaqat ularning yunalganligi maqsadlilik, shaxsiy individual sifatlari tayyorgarligi bilan, balki shu bilan birga ularning qanchalik muloqot qoidalarini bilishlari, kommunikativ bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bolishlari bilan bog'liqdir.

O'qituvchilar doimiy kommunikativ muloqotda bo'ladilar. Muloqot davomida axborot maqsadli uzatiladi, qabul qiluvchi diqqatini qiziqishini o'ziga tortadi, qabul qilinadi va axborot asosida faoliyat shunday shart sharoitki unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma – xilligi namoyon bo'ladi. Kommunikatsiya – muloqotning

asosiy funksiyasi suhbatdoshlarga asosiy axborot uzata bilish, ular o'rtasidagi bir –birini tushinishini taminlashdir.

Kommunikatsiya va muloqotning bir funksiyasi har bir insonning ijtimoiy tajribasini o'stirishdir.

O'qituvchining kommunikativ faoliyatining asosiy vositalarini quydagilar tashkil etadi.

1. Verbal ta'sir.
2. Paralingvistik ta'sir.
3. Noverbal ta'sir.

Verbal ta'sir so'z yordamida boshqa insonlarga ta'sir etilishdir. Har bir so'zni o'z lug'aviy ma'nosi bilan kerakli vaqtda, muayyan diksiya bilan ayta olish ko'p so'z ishlatmaslik, aytgan so'zni bajarish har bir o'qituvchining hurmat izzati obro'sini oshradi.

Paralingvistik ta'sir bu nutqni bezovchi omillar, nutqning baland yoki past tovushda aytilishi, tovushlar artikulyatsiyasi, to'xtamlar, yutal, duduqlanish kabi nuqsonlardir.

Noverbal ta'sir bu nutqsiz ta'sir etilishdir. Suhbatdoshlarning bir biri bilan fazodagi yaqinligi, uzoqligi, intilish, qiliqlari, memikasi, pantomimikasi va qiyofasidan seziladigan axborotlardir. O'qituvchining o'z faoliyatida ushbu ko'rsatilgan ta'sir vositalarini yaxshi bo'lishlari va xayotda qo'llana olishlari maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchining pedagogik faoliyatida muomalaning roli nihoyatda muhim bo'lib, pedagogdan o'z kommunikativ faoliyatini mohirlik bilan boshqarishni talab yetadi. Bu o'z navbatida, pedagogdan qator kommunikativ muomila ko'nikmalari mavjud bo'lishini taqazo yetadi.

Bular quydagilar:

-Kishilar bilan muomala qilaolish ko'nikmasi;

-To'g'ri tashkil etilgan muomala tizimi orqali o'quvchilar bilan ijodiy hamkorlik faoliyatini uyushtirish;

-Muomalani maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarish ko'nikmasi,

Muomala – hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga keluvchi shaxslar aro muloqat rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muomala ushbu tartiblardan tashkil topadi:

1. Kommunikativlar (bir tomonlama axborot uzatish)
2. Interaktivlar (ikki tomonlama o'zaro ta'siri)
3. Persiptivlar (o'zaro bir birini idrok qilishlar)

Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ faoliyatini shakllantirishning muayyan tizimi quydagilar:

-hamkorlik ishtirokchilarining o'zaro axborot almashinuvidir;

-turlicha kommunikativ vositalar (telefon, telegraf, kompyuter va h.k) yordamida o'qituvchi tomonidan o'quvchi bilan o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatni tashkil qilish;

-muayyan maqsadda dastur asosida amalga oshirishni rivojlantirish va o'tkazish funksiyasini bajaradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi muloqot jarayonining mantiqini bosqichini va uni ro'yobga chiqarish ketma –ketligini aniq tasavvur qila olish kerak. Yosh o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatining birinchi qadamlaridanoq shaxsiy kommunikativ faoliyat imkoniyatlarini ishlash zarur. Chunki ular birinchidan, boshlang'ich pedagogika kommunikativ texnologiyani egallashga, ikkinchidan boshlang'ich sinf o'qituvchisi muloqot jarayoni uning ijodiy individualligi bilan to'liq mos kelishiga yordam beradi.

O'qituvchining nutq madaniyati kommunikativ faoliyatining asosi hisoblanadi.

Tilning nazariy masalalari qanchalik ishlangan, me'yoriy jihatlari belgilangan bo'lmasin, ularni o'rganishga, ulardan foydalanish va ko'nikmalar hosil qilishda loqaydlik, beparvolik hatto ma'suliyatsizlikka yo'l qo'yish bugungi kun o'qituvchisiga xos bo'lmagan fazilatdir.

Shunday ekan ona tilimizga, nutqimiz madaniyatiga yuksak talablar bilan yondashishimiz so'zlashish va yozish jarayonida uning barcha me'yoriy talablariga qat'iy rioya qilishimiz go'zal muomala odobining yo'lga qo'yishimiz va shu orqaligina o'zimiz tarbiyalayotgan yoshlarimizga namuna bo'lishimiz va ta'sir o'tkazishimiz bugungi kunimizning asl talabidir. O'qituvchi hozirgi zamon ta'lim - tarbiya talablariga mos bo'lmog'i –yuksak darajadagi boshqaruv ko'nikma va

malakalariga ega bo'lmog'i, o'z tashkiliy – pedagogik darajasini doim takomillashtirib bormog'i, lozimim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Maxmudova M., E. Shamuratova Xorijiy mamlakatlar pedagogikasi tarixi. Samarqand: SamDChTI, 2021. -143 b
2. Mahmudova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiylikni rivojlantirish muammosi. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali. 2021, (maxsus son) 5-son, 29-32-bet.
3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015. – 120 bet.
4. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo'jaev A.A., Qodirov H.Sh. Ta'lim texnologiyalari. Darslik. Toshkent "Voriz" nashriyoti–2019
5. Xo'jaev B.Q., Olimov Sh.Sh. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. - Buxoro, Yoqub Dovud, - 2004. -164 b.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S. – Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 104 b.
7. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. – Toshkent: O'qituvchi, 2000. – 207 b.
8. Shaxobiddinova, Z. S. (2024). Impact of Assessment Results on Student Development and Ways to Improve the Assessment System. *Miasto Przyszłości*, 55, 833-835.
9. Zaripova, S., & Gafurova, K. (2024). FEATURES OF TEACHING ENGLISH PHONETICS TO PRESCHOOL CHILDREN. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 5(56), 289-292.
10. Shaxnoza, Z. (2023). TEACHING FOREIGN LANGUAGES AT PRESCHOOLS USING CONTEMPORARY METHODS. REGARDING FOREIGN APPROACHES. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(10), 49-53.
11. Zaripova, S. (2024). METHODOLOGY-AN IMPORTANT FACTOR IN THE STUDY OF FOREIGN LANGUAGES. *Science and innovation*, 3(B1), 420-423.
12. Zaripova, S. (2025, January). CLASSROOM MANAGEMENT AND TEACHER'S APPROACH. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 2, No. 1, pp. 34-38).